MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASSTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafruz Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI

Najmidinov Azizbek Bahrom o'g'li

University of Business and Science

"Menejment" kafedrası o'qituvchisi

Email: uzazikuz181771@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'рни va ahamiyati, uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri hamda O'zbekiston Respublikasi tajribasida turizm xizmatlarini rivojlantirish borasida erishilayotgan natijalar ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, turizm xizmatlarining zamonaviy iqtisodiy mohiyati, ularni innovatsion tashkil etish jarayonlari hamda amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar tizimli yondashuv asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga tayangan holda turizm xizmatlarini innovatsion rivojlantirish va sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm xizmatlari, innovatsion faoliyat, raqamli transformatsiya, innovatsion tashkil etish mexanizmlari, turizm infratuzilmasi, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy samaradorlik, turizm bozori, raqobatbardoshlik, O'zbekiston turizmi.

Abstract. This article analyzes the role and importance of the tourism sector in the national economy in the context of globalization and digital transformation, its impact on economic efficiency, and the results achieved in the development of tourism services in the experience of the Republic of Uzbekistan on a scientific basis. Also, the modern economic essence of tourism services, the processes of their innovative organization, and the problems arising in practice are studied on a systematic approach. Based on the results of the research, scientific conclusions and practical recommendations are developed aimed at the innovative development of tourism services and increasing the economic efficiency of the sector.

Key words: tourism services, innovative activities, digital transformation, innovative organizational mechanisms, tourism infrastructure, digital technologies, economic efficiency, tourism market, competitiveness, tourism of Uzbekistan.

Аннотация. В статье на научной основе анализируется роль и значение сектора туризма в национальной экономике в контексте глобализации и цифровой трансформации, его влияние на экономическую эффективность, а также результаты, достигнутые в развитии туристических услуг на примере Республики Узбекистан. Также систематически изучаются современная экономическая сущность туристических услуг, процессы их инновационной организации и проблемы, возникающие на практике. На основе результатов исследования разработаны научные выводы и практические рекомендации, направленные на инновационное развитие туристических услуг и повышение экономической эффективности сектора.

Ключевые слова: туристические услуги, инновационная деятельность, цифровая трансформация, инновационные организационные механизмы, туристическая инфраструктура, цифровые технологии, экономическая эффективность, туристический рынок, конкурентоспособность, Узбекский туризм.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiy o'sishning barqarorligi va raqobatbardoshligi iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishga bevosita bog'liq. Ayniqsa, xizmatlar sohasining muhim tarmog'i hisoblangan turizmni innovatsion asosda rivojlantirish davlatlar iqtisodiy taraqqiyotida strategik ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida, jumladan, turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu soha iqtisodiyotning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni oshirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim o'rin tutmoqda. Shu munosabat bilan mamlakatning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, xorijiy turistlar oqimini kengaytirish va turizm xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Jahon turizmida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar turizm xizmatlarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish, sohani boshqarish samaradorligini ta'minlash hamda xavfsiz turizmni rivojlantirish masalalarining dolzarbligini ko'rsatmoqda. Mazkur holatlar turizm xizmatlarini innovatsion tashkil etish mexanizmlarini ilmiy asosda tadqiq etish va ularni takomillashtirish zaruratini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, soha xos iqtisodiy munosabatlar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. MDH olimlaridan Aleksandrova (2001)¹ turizm sohasini barqaror rivojlantirish uchun turdosh tarmoqlar, tashkilotlar va korxonalar o'rtasidagi integratsiyalangan aloqalar modelini taklif qilgan bo'lib, bunda davlatning roli, qulay institutsional muhit yaratish, infratuzilma rivoji va strategik texnologiyalarni joriy etish hamda kadrlar salohiyatini oshirish asosiy yo'nalish sifatida belgilangan. Zhukova (2006)² esa turizm sohasidagi muammolarni tadqiq qilish, ular uchun bozordagi talabga javob beruvchi yechimlarni ishlab chiqish va amaliyotga samarali joriy etish strategik jihatdan dolzarb ekanligini ta'kidlagan. Kabushkin (2002)³ turizm xizmatlari sohasining nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ijtimoiy jarayonlarni yaxshilashdagi rolini, shuningdek, aholi turmush darajasi va sifatini oshirishdagi samaradorligini ko'rsatgan. Shu kabi fikrlar Kwartal'nov (1998)⁴, Kuskov va Dzhaladyan (2011)⁵ ishlarida ham aks etgan.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham turizm sohasining barqaror rivojlanishi va innovatsion faoliyatni joriy etish masalalari chuqur o'rganilgan. Jumladan, Tuxliyev va Abdullaev (2006)⁶ turizmni raqobatbardosh bozorda rivojlantirish, infratuzilmasini zamonaviy darajaga yetkazish va yuqori sifatli xizmat ko'rsatish madaniyatini shakllantirishga e'tibor qaratgan. Safarov (2016)⁷ esa turizm xizmatlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro marshrutlarni rivojlantirish yo'llarini tahlil qilgan. Alimova (2017)⁸ va Eshtaev (2011)⁹ milliy turizmning barqaror rivojlanishiga iqtisodiy va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini ko'rsatgan.

Shu tarzda, mavjud ilmiy tadqiqotlar turizm sohasini rivojlantirish strategik yo'nalishlarini aniqlash, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozoriga moslashtirish va turizmning nazariy hamda amaliy muammolarini o'rganishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, innovatsiyalarni turizm sohasiga joriy etish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan va mazkur yo'nalishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar kamligi ushbu maqola mavzusini tanlashga asos bo'ladi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni turizm xizmatlariga joriy etish sohaning barqaror rivojlanishi, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, MDH va O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning institutsional, tashkiliy va moliyaviy mexanizmlarini chuqur o'rganish zarurati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston turizm sohasida, xususan Namangan viloyatida turizm xizmatlarini innovatsion shakllarda tashkil etishning iqtisodiy mohiyatini baholash maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, empirik ma'lumotlarni o'rganish, statistik va qiyosiy yondashuvlar uyg'unlashtirildi.

Nazariy-metodologik asos sifatida turizm xizmati tushunchasi, turizm infratuzilmasi, innovatsion texnologiyalar (elektron rezervatsiya, mobil ilovalar, sun'iy intellekt, Big Data), iqtisodiy samaradorlik va turizmning xalqaro iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Jumladan, Mardiyev T.K. va Ga'fforov A. (turizmning xalqaro iqtisodiyotga ta'siri), G'ulomxasanov E.M. va Rahmatillaev O.X. (O'zbekistonda turizm sohasining davlat rivojiga qo'shgan hissasi), Ivatov I. (turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion muhitdan foydalanish imkoniyatlari) kabi mualliflarning ishlaridan foydalanildi. Shuningdek, turizmning iqtisodiy ta'siri, investitsiyalar, valyuta kirmlari, ish o'rinlari yaratish va barqaror rivojlanish masalalari o'rganildi.

1 Aleksandrova A.Yu. (2001) Международный туризм: Учебное пособие для вузов. - М.: Аспект Пресс, - 464 с.

2 Жукова М.А. (2006) Менеджмент в туристском бизнесе: учебное пособие. -2-е изд., стер. -М.:КНОРУС, -193с.

3 Кабушкин Н.И. (2002) Менеджмент туризма. Учебник. Мн. Новое знание., 409 -24,6 п.л.

4 Квартальнов В.А. (1998) Туризм: теория и практика: Избранные труды: В 5ти. т. М.: Финансы и статистика.

5 Кусков А.С., Джаладян Ю.А. (2011) Туристский бизнес: словарь-справочник. – М.: ФОРУМ, – 384 с.

6 Тухлиев Н., Абдуллаева Т. (2006) Национальные модели развития туризма. - Т.: Гос.науч. изд-во «Узбекистон миллий энциклопедияси», - 238 б.

7 Сафаров Б.Ш. (2016) Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари // Монография. - Тошкент: Фан ва технология, - 184 б.

8 Алимова М.Т. (2017) Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарканд вилояти мисолида): Икт. фан. докт. дисс... - Самарканд: СамИСИ. - 351 б.

9 Эштаев А.А. (2011) Туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси. - Т.: «Фан», - 280 б.



Empirik ma'lumotlar sifatida Namangan viloyati turizm sohasining 2017–2025-yillar (yanvar–noyabr, 1-dekabr holatiga) statistik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar turistlar soni (umumiy, xorijiy va ichki), turizm xizmatlari eksporti, joylashtirish vositalari (mehmonxonalar, xostellar, uy mehmonxonalari va boshqalar), o'rinlar soni, Wi-Fi zonalar, sanitariya-gigiena shahobchalari, turistik korxonalar, transport vositalari hamda sohada yaratilgan ish o'rinlari kabi ko'rsatkichlarni qamrab oldi. 2025-yil rejasi va uning amalda bajarilishi (shu jumladan 1-yarim yillik natijalar) qiyosiy tahlil qilindi, bu orqali innovatsion omillarning (raqamli xizmatlar, infratuzilma rivoji) ta'siri baholandi.

Tadqiqotning asosiy e'tibori turizm xizmatlarini innovatsion usullar (elektron tizimlar, mobil ilovalar, shaxsiylashtirilgan xizmatlar) asosida tashkil etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlariga qaratildi. Bunda statistik ko'rsatkichlarning o'sish dinamikasi, jumladan xorijiy turistlar sonining 2017-yildagi 2,3 ming kishidan 2025-yilda 1502 ming kishiga yetishi, turizm xizmatlari eksportining 2 mln dollardan 224,3 mln dollarga oshishi, resurslardan samarali foydalanish va xarajatlarning kamayishi tahlil qilindi.

Qiyosiy yondashuv asosida Namangan viloyati ko'rsatkichlari O'zbekiston bo'yicha umumiy turizm statistikasi hamda xorijiy tajribalar (AQSH "TravelTech", Yaponiya "Smart Tourism") bilan solishtirildi. Natijada innovatsion texnologiyalarni joriy etish xizmatlar sifati, turistlar oqimi va daromadlarni oshirishga xizmat qilayotgani aniqlandi.

Ushbu metodologiya turizm sohasidagi innovatsiyalarning iqtisodiy mohiyatini obyektiv baholashga, real statistik ma'lumotlar asosida asoslantirilgan xulosalar chiqarishga va amaliy takliflar ishlab chiqishga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm xizmatlari O'zbekiston iqtisodiyotida, xususan Namangan viloyatida muhim o'sish omili hisoblanib, innovatsion yondashuvlar, jumladan raqamli rezervatsiya tizimlari, mobil ilovalar, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari hisobiga soha samaradorligi sezilarli darajada oshib bormoqda. Namangan viloyatining 2017–2025-yillar bo'yicha statistik ma'lumotlari hamda ilmiy adabiyotlar tahlili innovatsiyalar turistlar oqimi, eksport daromadlari va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyatidagi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi¹⁰

Ko'rsatkich	2017-yil	2020-yil (pandemiya ta'siri)	2024-yil	2025-yil (reja / amalda)	O'sish (2017–2025, %)
Umumiy turistlar soni (ming kishi)	24.9	38.0	4520.8	5000 / 6721	+26,000%+
Xorijiy turistlar (ming kishi)	2.3	4.6	634.5	1500 / 1502	+65,200%+
Turizm xizmatlari eksporti (mln USD)	2	3.5	204.1	210 / 224.3	+11,115%
Joylashtirish vositalari (dona)	23	82	693	693 / 724	+3,000%+
O'rinlar soni	1,584	2,711	10,798	10,798 / 11,383	+618%
Turistik korxonalar (dona)	2	25	118	118 / 134	+6,600%
Soha ish o'rinlari (ta)	250	623	11,660	11,660 / 12,675	+5,000%+

Yuqoridagi jadvalda 2017–2025-yillarda Namangan viloyatida turizm ko'rsatkichlarining o'sishi keltirilgan. 2020-yilda pandemiya ta'siri tufayli pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2021-yildan boshlab innovatsion loyihalar (elektron xizmatlar, mobil ilovalar) joriy etilishi natijasida barqaror o'sish qayd etilgan. 2025-yilda esa amaliy natijalar reja ko'rsatkichlaridan ortiq bajarilgan, jumladan umumiy turistlar soni 134% ga oshgan.

Tahlil natijalariga asoslanib aytish mumkinki, O'zbekiston va uning mintaqalari, xususan Namangan viloyati, turizmning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2025-yil yakunlariga ko'ra mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 10,7 million kishiga yetib, turizm xizmatlari eksporti hajmi 4,4 milliard AQSh dollaridan oshdi. Ushbu ko'rsatkichlar o'tgan yilga nisbatan qariyb 50% ga yaqin o'sishni namoyon etmoqda. Mazkur natijalar sohada hali to'liq foydalanilmayotgan katta imkoniyatlar mavjudligini, shuningdek turistlar oqimining mavsumiy va yosh tarkibi bo'yicha nisbatan barqaror taqsimlangani tufayli turizm turlarining tashqi iqtisodiy va ichki tebranishlarga yuqori darajada chidamli ekanini tasdiqlaydi.

¹⁰ Namangan viloyati turizm boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan



O'zbekistonning turizm salohiyatini belgilovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- Tabiiy xilma-xillik: hududning 30% dan ortig'i tog'-o'rmon, tekislik va dam olish uchun qulay hududlar bilan qoplangan.

- Boy madaniy meros: 5000 dan ortiq me'morchilik va arxeologik obyektlar mavjud bo'lib, ulardan 2500 tasi davlat muhofazasiga olingan. Jumladan, Toshkentda 110 ta, Samarqandda 120 ta, Buxoroda 220 ta, Xivada esa 300 dan ortiq tomosha qilinadigan obyektlar mavjud.

- UNESCO Jahon merosi obyektlari: Shahrisabz tarixiy markazi Amir Temur davri me'morchiligining yorqin namunasi sifatida jahon miqyosida e'tirof etilgan.

Farg'ona vodiysi, xususan Marg'ilon shahri, ipakchilik va atlas mato ishlab chiqarish markazi sifatida alohida ahamiyatga ega. "Atlas va ipak shahri" yo'nalishi bo'yicha yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish xorijiy sayyohlarni jalb etishda katta salohiyatga ega.

Namangan viloyati esa ekoturizm va sarguzasht turizmini (Pop, Chust, Kosonsoy tumanlaridagi g'orlar va tog' yo'llari) rivojlantirish orqali mintaqaviy liderlikka da'vogarlik qilmoqda. Innovatsion texnologiyalarni (elektron rezervatsiya, mobil ilovalar, sun'iy intellekt) joriy etish hamda infratuzilmani rivojlantirish turizm xizmatlari sifati, mijozlar qoniqishi va iqtisodiy samaradorlikni oshirib, O'zbekistonni Markaziy Osiyoning yetakchi turizm markaziga aylantirmoqda. Kelgusida Farg'ona vodiysi va Namangan kabi mintaqalarni kompleks rivojlantirish orqali turizm daromadlari va bandlik darajasini yanada oshirish mumkin. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki madaniy merosni asrashga ham xizmat qiladi.

Innovatsiyalar turizm xizmatlarini optimallashtirishda asosiy rol o'ynadi:

- Elektron rezervatsiya va mobil ilovalar (2020–2021-yillarda joriy etilgan): navbatlar qisqardi, sayyohlar oqimi 15–20% ga oshdi, to'lov jarayonlari onlayn shaklga o'tkazildi.

- Sun'iy intellekt va personalizatsiya (2022-yildan): mijozlar qoniqishi 20–25% ga oshdi, shaxsiy tavsiyalar orqali xorijiy turistlar soni ko'paydi.

- Big Data tahlili (2023-yildan): resurslarni samarali taqsimlash ta'minlandi, xizmatlar hajmi 12% ga oshdi, operatsion xarajatlar esa 8–10% ga kamaydi.

Natijada 2017–2025-yillarda xorijiy turistlar soni 652 baravar, turizm xizmatlari eksporti daromadlari esa 112 baravar oshdi. Bu holat Mardiyev T.K. va Ga'fforov A. tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, turizmning valyuta tushumlarini shakllantirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishdagi muhim rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Agar milliy va xorijiy tajriba bilan qiyoslaydigan bo'lsak, O'zbekiston umumiy statistikasi (2025-yil ma'lumotlari bo'yicha) xorijiy turistlar soni 9,7–10,7 mln kishiga yetganini ko'rsatadi (2024-yilga nisbatan +50%), daromadlar esa 3,5–4,4 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Namangan viloyati xorijiy turistlar bo'yicha (1,5 mln kishidan ortiq) mintaqaviy liderlardan biri bo'lib, uy mehmonxonalari va xostellar (634 va 29 dona) rivojlanishi bilan ajralib turadi. Xorijiy tajribada (AQSh "TravelTech", Yaponiya "Smart Tourism") innovatsiyalar operatsion xarajatlarni 10–25% ga kamaytirgan. O'zbekistonda ham shunga o'xshash natijalar kuzatilmoqda, biroq Ilatov I. ta'kidlaganidek, IT-mutaxassislar yetishmasligi va raqamli infratuzilma muammolari to'siq bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, iqtisodiy samaradorlik bahosini tahlil qilsak, innovatsiyalar samaradorligini baholash formulasi bo'yicha

$$(E_s = (Q_1 - Q_0)/(C_1 - C_s)):$$

- Xizmat hajmi (Q) o'sishi: +26 000% (turistlar soni);
- Xarajatlar (C) kamayishi: taxminan 8–10% (raqamli optimallashtirish orqali);
- $E_s \gg 1$, ya'ni innovatsion xizmatlar yuqori iqtisodiy samarali.

G'ulomxasanov E.M. va Rahmatillaev O.X. ishlarida ko'rsatilganidek, turizm davlat rivojiga multiplikativ ta'sir ko'rsatib, bandlikni oshiradi va ijtimoiy farovonlikni yaxshilaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion turizm xizmatlari Namangan viloyatida va umuman O'zbekistonda xizmat sifatini, daromadlarni va mijozlar oqimini oshirib, iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada yaxshilamoqda. Bu jarayon mintaqani turizm markaziga aylantirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston, xususan Namangan viloyati va Farg'ona vodiysi, turizmning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida ajralib turadi. 2017–2025-yillarda Namangan viloyatida turistlar soni 24,9 ming kishidan 6 721 ming kishiga, xorijiy turistlar 2,3 ming kishidan 1 502 ming kishiga, turizm eksporti esa 2 mln AQSh dollaridan 224,3 mln AQSh dollariga oshdi. Bu ko'rsatkichlar innovatsion texnologiyalar (elektron rezervatsiya, mobil ilovalar, sun'iy intellekt va Big Data) joriy etilishining samarasi bo'lib, xizmat sifati, mijozlar qoniqishi va iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirdi.

O'zbekistonning boy madaniy merosi (5000 dan ortiq obyekt, UNESCO ro'yxatidagi Shahrisabz), tabiiy xilma-xilligi va mintaqaviy salohiyati (Farg'ona vodiysi ipakchiligi, Namangan ekoturizmi) xorijiy sayyohlarni jalb etishda katta imkoniyat yaratmoqda. Turistlar oqimining mavsumiy tebranishlari pastligi va turli yosh



guruhlariga mosligi sohaning tashqi-iqtisodiy zarbalarga chidamliligini tasdiqlaydi. Innovatsion yondashuvlar va davlat qo'llab-quvvatlashi O'zbekistonni Markaziy Osiyoning yetakchi turizm markaziga aylantirmoqda.

Ilmiy tahlil natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Raqamli transformatsiyani kuchaytirish: barcha turistik obyektlar uchun yagona mobil ilova va sun'iy intellekt asosidagi shaxsiy tavsiya tizimini to'liq joriy etish, shu orqali rezervatsiya va to'lovlarni soddalashtirish;
- Mintaqaviy salohiyatni rivojlantirish: Farg'ona vodiysida "Ipak yo'li" va "Atlas shahri" marshrutlarini kengaytirish, Namanganda ekoturizm (Pop, Kosonsoy tog'lari) va hunarmandchilik (Chust pichoqlari) yo'nalishlariga investitsiyalarni oshirish;
- Infratuzilmani takomillashtirish: IT-mutaxassislar tayyorlash, internet qamrovini kengaytirish va kiberxavfsizlikni ta'minlash orqali to'siqlarni bartaraf etish;
- Barqaror turizmni ta'minlash: ekologik zararlarni minimallashtirish, madaniy merosni asrash va mahalliy aholini bandlikka jalb qilish bo'yicha dasturlarni amalga oshirish;
- Marketing va hamkorlik: xorijiy tajribalarni (TravelTech, Smart Tourism) o'rganish va xalqaro platformalarda faol reklama orqali xorijiy turistlar oqimini yanada oshirish. Ushbu takliflar amalga oshirilsa, turizm sohasi iqtisodiy o'sish, bandlik va madaniy almashinuvning asosiy omiliga aylanadi.

Umuman olganda, temir yo'l transporti infratuzilmasini raqamlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, xavfsizlikni ta'minlash va ekologik barqarorlikni kuchaytirishda strategik ahamiyatga ega. Ushbu jarayon O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tishini tezlashtiradi hamda mintaqaviy transport-logistika markazi sifatida mavqeini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4143188>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni. (2023). <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
4. UNWTO. (2022). Tourism and Innovation: Trends and Impacts. Madrid: World Tourism Organization.
5. OECD. (2021). Tourism Trends and Policies. Paris: OECD Publishing.
6. Buhalis, D. (2019). Technology in Tourism: From Information Communication Technologies to eTourism. London: Routledge.
7. Cooper, C., Fletcher, J., Fyall, A., Gilbert, D., & Wanhill, S. (2018). Tourism: Principles and Practice. Harlow: Pearson Education.
8. Hall, C.M., & Page, S.J. (2014). The Geography of Tourism and Recreation. London: Routledge.
9. Xodjayev, B.X. (2022). Turizm iqtisodiyoti va innovatsion rivojlanish. Toshkent: TDIU nashriyoti.
10. Abdullayev, O.M. (2021). Turizm xizmatlarini innovatsion tashkil etishning iqtisodiy samaradorligi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №4, 45–53.
11. Karimov, A.A. (2020). Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli. Turizm va servis ilmiy jurnali, №2, 28–36.
12. Kenjebaev, A. (2021). Raqamli texnologiyalar asosida turizm xizmatlarini boshqarish mexanizmlari. Transport va logistika ilmiy jurnali, №3, 41–49.
13. Искандар, Я., Hakimjon, H., & Хасан, Р. (2019). Совершенствование методических подходов расчета валового регионального продукта и ее влияние на экономический рост.
14. Rakhimov, H. S. (2019). Assessment of the economic efficiency of development of transport infrastructure. International Journal of Research in Management & Business Studies (IJRMBS 2019), 6(3).
15. Nematillaevich, L. I. (2022). Main characteristics, theoretical issues of effective management strategies in higher education. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 impact factor: 8.036, 11, 97-101.
16. Nematillaevich, L. I. (2022). Improving the mechanisms for developing effective management strategies in higher education. international journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 impact factor: 8.036, 11(08), 1-8.
17. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti. <https://www.stat.uz>
18. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi rasmiy sayti. <https://uzbektourism.uz>
19. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy sayti. <https://mift.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>